

**NAVOIY VILOYATIDA
CHAKANA VA ULGURJI SAVDO
TOVAR AYLANMASI**




CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTLar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023- yilning yanvar-may oylarida Navoiy viloyatida chakana savdo tovar aylanmasi **3 843,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **104,1 %** ga etdi.

Shumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **274,3** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **112,8 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **3 569,1** mlrd. so'mni (**103,5 %** ni), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **258,3** mlrd. so'mni (**104,7 %** ni) tashkil etdi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI



Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.


	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. So'm	2022- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda
Navoiy viloyati	3843,4	104,1	274,3	112,8	3569,1	103,5
Navoiy sh.	942,7	103,9	139,5	123,7	803,2	101,1
Zarafshon sh.	397,9	106,2	34,0	175,3	363,9	102,4
G'ozg'on sh.	36,8	107,3	0,2	3,4 m.	36,6	106,9
<i>tumanlar:</i>						
Konimex t.	113,2	104,4	3,6	154,6	109,6	103,3
Qiziltepa t.	496,5	104,1	5,1	72,4	491,4	104,6
Navbahor t.	220,6	103,0	23,9	93,7	196,7	104,3
Karmana t.	692,8	102,9	49,9	84,1	642,9	104,7
Nurota t.	161,0	102,3	3,4	99,2	157,6	102,4
Tomdi t.	39,1	105,0	0,5	176,7	38,6	104,5
Uchquduq t.	208,3	103,1	1,1	51,2	207,2	103,6
Xatirchi t.	534,5	105,8	13,1	119,8	521,4	105,4

2023- yilning yanvar-may oylarida 2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan viloyatning G'ozg'on shahri (**107,3 %**), Zarafshon shahri (**106,2 %**) va Xatirchi tumani (**105,8 %**) chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **3 569,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022 yilning yanvar-may oylariga nisbatan **103,5** % ni tashkil etdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **92,9** % ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi **274,3** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **7,1** % ulushiga to'g'ri keldi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha G'ozg'on shahri (**99,5 %**), Uchquduq (**99,5 %**) va Qiziltepa (**99,0 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **7,1 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Navoiy shahri (**14,8 %**), Navbahor tumani (**10,8 %**), Zarafshon shahri (**8,6 %**), Karmana tumanida (**7,2 %**) kuzatildi.

AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Hududlar kesimida ma'lumot


	Hajmi, ming so'm	O'sish sur'ati, Foizda
Navoiy viloyati	3 632,7	102,0
Navoiy sh.	6 020,3	100,3
Zarafshon sh.	4 589,9	105,0
G'ozg'on sh.	4 040,5	106,1
<i>tumanlar:</i>		
Konimex t.	3 018,9	102,4
Qiziltepa t.	3 113,0	102,4
Navbahor t.	1 852,3	101,2
Karmana t.	5 090,1	100,4
Nurota t.	1 825,6	100,7
Tomdi t.	2 473,8	103,0
Uchquduq t.	5 314,0	101,2
Xatirchi t.	2 542,3	103,7

2023- yilning yanvar-may holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **3 632,7** ming so'mni (2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **102,0** % ni) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Navoiy shahar (**6 020,3** ming so'm), Uchquduq tumani (**5 314,0** ming so'm) va Karmana tumani (**5 090,1** ming so'm) hissasiga to'g'ri keldi.

Navoiy viloyati bo'yicha 2023- yilning yanvar-may oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **258,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **104,7** % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12- bozor va 12- bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **144,1** mlrd. so'mni, chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **114,2** mlrd so'mni tashkil etdi.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi (mln. so'm)




UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, foizda













Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

2023- yilning may oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **37,5** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**20,2** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari		Mrd. so'm
	Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari	20,2
	Non va non mahsulotlari	4,9
	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)	3,3
	Tovuq go'shti	1,2
	Qurilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yong'oq, bodom, pista va boshqalar)	1,6
	Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...)	1,5
	Tuxum	0,9
	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – hashak	0,8
	Ziravorlar	1,1
	Tuzlamalar	1,6
	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari (manzarali va qishloq xo'jaligi)	0,4
Nooziq-ovqat tovarlari		

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023- yilning may oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **26,7** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **22,7** mlrd. so‘m, qo‘y va echkilar – **3,7** mlrd. so‘mni, otlar – **0,1** mlrd. so‘mni, parrandalar – **0,11** mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)		Mrld. so‘m
	2 yoshdan kata bo‘lgan qoramollar	14,1
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	4,0
	1 yoshgachah bo‘lgan yosh mollar	4,6
	Qo‘ylar	2,7
	Otlar	0,1
	Echkilar	1,0
	Kurka, o‘rdak, g‘oz	0,1
	Tovuqlar	0,03
	Quyionlar	0,03
	Qushlar	0,01

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI




2023- yilning yanvar-may oylarida umumiy ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **164,4** mlrd. so'mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **105,4** % ni tashkil qildi. Bunda savdo aylanmasining **86,5** % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda
Navoiy viloyati	164,4	105,4	22,1	105,8	142,3	105,4
Navoiy sh.	54,9	103,4	2,4	63,7	52,5	106,4
Zarafshon sh.	25,8	120,1	7,1	2,2 m.	18,7	102,2
G'ozg'on sh.	0,6	103,0	-	-	0,6	103,0
<i>tumanlar:</i>						
Konimex t.	2,5	104,2	-	-	2,5	104,2
Qiziltepa t.	11,5	130,1	2,6	-	8,9	100,9
Navbahor t.	21,2	87,5	10,0	72,3	11,2	107,9
Karmana t.	27,5	109,7	-	-	27,5	110,1
Nurota t.	2,1	101,1	-	-	2,1	101,1
Tomdi t.	0,6	105,5	-	-	0,6	105,5
Uchquduq t.	6,5	100,1	-	-	6,5	100,1
Xatirchi t.	11,2	101,0	-	-	11,2	101,0

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- iyun holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) **1 340,9** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tkan yilning mos davriga nisbatan **110,9 %** ni tashkil etdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **608,4** mlrd. so'm (o'tkan yilning mos davriga nisbatan **103,0 %** ni), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi **732,5** mlrd. so'mni (o'tkan yilning mos davriga nisbatan **118,4 %** ni) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'ish sur'ati, foizda



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot




	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Navoiy viloyati	1 340,9	100,0
Navoiy sh.	977,5	72,9
Zarafshon sh.	11,2	0,8
G'ozg'on sh.	-	-
<i>tumanlar:</i>		
Konimex t.	9,2	0,7
Qiziltepa t.	23,0	1,7
Navbahor t.	7,8	0,6
Karmana t.	278,4	20,7
Nurota t.	10,1	0,8
Tomdi t.	0,02	0,002
Uchquduq t.	10,8	0,8
Xatirchi t.	12,9	1,0


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Navoiy shahri (**977,5** mlrd. so'm), Karmana tumani (**278,4** mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023- yilning yanvar-may oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **1 012,2** mlrd. so‘mni tashkil etib, mikrofirma va kichik korxonalar ulushi **78,4 %** ni tashkil etadi.




Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **793,9** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **102,2 %** ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **78,4 %** ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish Navoiy shahrida (120,2 %) kuzatildi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda
Navoiy viloyati	1 012,2	108,1	218,3	137,0	793,9	102,2
Navoiy sh.	514,0	120,2	170,6	188,4	343,4	101,8
Zarafshon sh.	41,1	100,9	0,1	16,7 m.	41,0	100,6
G'ozg'on sh.	0,1	102,2	-	-	0,1	102,2
<i>tumanlar:</i>						
Konimex t.	2,4	118,9	0,7	196,6	1,7	101,9
Qiziltepa t.	115,6	100,5	-	-	115,6	100,5
Navbahor t.	56,0	112,0	35,1	119,9	20,9	100,8
Karmana t.	193,2	105,0	11,7	98,1	181,5	105,4
Nurota t.	14,0	101,9	0,1	-	13,9	101,6
Tomdi t.	1,3	100,4	-	-	1,3	100,4
Uchquduq t.	33,5	100,6	-	-	33,5	100,6
Xatirchi t.	41,0	60,4	-	-	41,0	100,7



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Тел. 79-223-50-43**